

## Yuqori va o'ta yuqori bosimli gaz razryadli lampalar

2 aprel 2018 yil 1 juftlikda institutimizning V o'quv binosi 602 auditoriyada "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish" kafedrasi dotsenti, t.f.n Bayzakov Taxir Mirzanovichning 3 bosqich talabalariga "Yuqori va o'ta yuqori bosimli gaz razryadli lampalar" mavzusida ochiq ma'ruzasi bo'lib o'tdi. Ma'ruzada "Bosh maxsus konstruktorlik byurosini - Agromash Aksionerlik jamiyati" yetakchi ilmiy xodimi Bekzod Choriev, "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlardan foydalanish" kafedrasi professor-o'qituvchilari hamda institut O'quv-metodika boshqarmasi metodisti Maftuna Toshevalar ishtirok etishdi. Ma'ruzachi o'z ma'rzasini mavzuga oid umumiy ma'lumotlar berish bilan boshladi:

- Simobli gaz razryadli lampalar optik nurlanishni generatsiyalash (ishlab chiqarish) uchun simob bug'laridagi gaz razryadlaridan fodalanadigan yorug'likning elektr manbaidir. Simobli lampalar gaz razryadli lampalarning bir turidir.
- Yoritish bo'yicha Xalqaro komissiya tasdiqlagan Xalqaro yorug'lik texnikaviy lug'at tarkibiga "razryad lampa" termini kiritilgan.
- To'Idirilish bosimiga bog'liq xolda Past bosimli RL (PBRL), yuqori bosimli (YuBRL) va o'ta yuqori bosimli (O'YuBRL) ajratilinadi
- PBRL-simob bug'larining parsial bosimi 100 Pa gacha ; YuBRL-100 kPa atrofida O'YuBRL-1 MPa va undan yuqori bo'ladi.
- YuBRL-mo'ljali bo'yicha umumiy qo'llaniladigan va maxsusga bo'linishini aytib o'tdi.

### Shundan so'ng o'qituvchi talabalarga:

Yuqori bosimli lampa lampasining afzalliklari:

- 1) har xil kichik va katta quvvat birligiga ishlab chiqiladi;
- 2) atrof muxitni sharoiti lampaning asosiy parametrlariga ta'sir etmaydi;
- 3) lyuminessent lampalarga qaraganda ITA da mis va po'lat kam sarflanadi;
- 4) uncha katta bo'Imagan razmerga ega.

### Hamda kamchiliklari:

- 1) nurlanishning spektr tarkibi uncha qoniqarli emas;
- 2) tashqi kolbaning xarorati katta bo'lgani uchun tashqaridan tushgan nam tomchi uni parchalanishiga olib kelishi mumkin;
- 3) qaytadan yonish uchun 10-15 minut tanaffus talab qilinadi;
- 4) yorug'lik oqimini lipillashi lyuminessent lampanikiga qaraganda ko'proq;
- 5) faqat o'zgaruvchan tokda ishlashi hamda dars mobaynida talabalar lampalarni o'zlari tekshirib ishlash jarayoni, har bir element funksiyalarini bilib olishdi.



**O'quv-metodika boshqarmasi metodisti Maftuna Tosheva axboroti**